



TASAVVUF FALSAFASI TA'LIMOTINING METODOLOGIK ASOSLARI

Adilov Bobomurod Bekmurodovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16401344>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 28-iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 30-iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 24-iyul 2025 yil

KEY WORDS

tasavvuf, diniy-falsafiy ta'limot, irfoniy bilim, metafizika, ontologiya, ma'rifat, tavhid, tasavvufning falsafalashuvi, ratsionalizm, irratsionalizm, sufiy ta'limoti.

ABSTRACT

Mazkur maqolada tasavvuf falsafasining o'ziga xos metodologik asoslari, uning diniy-falsafiy ta'limot sifatidagi mohiyati va taraqqiyot bosqichlari tahlil qilingan. Tasavvufning Islom dini kontekstida shakllanishi, rivojlanish xususiyatlari va uning falsafalashuvi jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Sharq ratsional falsafasi va irfoniy bilim tizimi o'rtasidagi munosabatlar, tasavvufning metafizik, ontologik, gnoseologik va antropologik jihatlari hamda uning manbalari tizimli ravishda o'rganilgan. Tasavvuf falsafasining bugungi kunda ham insoniyat ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

KIRISH

Tasavvuf ta'limoti islom dini tarixida o'ziga xos va ajralib turadigan hodisa sifatida e'tirof etiladi. U oddiy diniy ta'limot sifatida emas, balki murakkab va ko'p qirrali diniy-falsafiy ta'limot sifatida shakllangan. Tasavvuf insonning ichki dunyosini, ruhiy olamini, ma'naviy kamolot yo'llarini chuqur o'rganuvchi ta'limot sifatida jahon falsafasi tarixida muhim o'rin egallaydi. Bu ta'limot asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, boy falsafiy mazmun kasb etib, o'zining metodologik asoslarini yaratgan.

Tasavvuf ta'limotining mohiyati va uning falsafiy jihatlarini tadqiq qilish bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu ta'limot inson ruhiyati, ma'naviyati va axloqiy kamoloti masalalariga javob beruvchi tizim sifatida qimmatlidir. Shu bois ham tasavvufning diniy-falsafiy ta'limot sifatidagi metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tasavvuf falsafasining metodologik asoslarini, uning diniy-falsafiy ta'limot sifatidagi mohiyatini va rivojlanish bosqichlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tasavvuf ta'limotining falsafiy jihatlari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ayniqsa, o'zbek tasavvufshunos olimi Najmiddin Komilov tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiq.

Najmiddin Komilov tasavvufni diniy-falsafiy ta'limot sifatida tahlil qilar ekan, bu ta'limotning ko'p qirraliligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, «tasavvuf biror-bir falsafiy tizim o'rnini egallashga da'vo qilgan emas. U, bir tomondan, diniy, ikkinchi tomondan, falsafiy-irfoniy qarashlardan

oziqlangan o'ziga xos ta'limot va axloqiy ustavlar majmuidir. U inson ruhiyati erki, inson ichki olami, hislari parvozini ifodalab, Sharq falsafiy tafakkurida muhim o'rin egallagan, ma'naviyatimizni boyitishga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan ezgu g'oyalari, najib hikmatlar silsilasidir» [1]. Bu fikrlar tasavvufning nafaqat diniy, balki chuqur falsafiy va axloqiy asoslarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tasavvufning diniy ta'limot sifatidagi jihatlarini tahlil qilar ekan, N.Komilov tasavvufning avvalo Tavhid g'oyasiga asoslanganligini alohida ta'kidlaydi. Tasavvuf amaliyotchisi – tariqat yo'lining soliki (yo'lovchisi) ma'naviy safar jarayonida ilohiy borlik va birlikni anglash, ruhiy va ma'naviy yuksalish va Alloh bilan bog'lanish mohiyatini o'rganadi. Bu jihat diniy g'oyalari va an'analar bilan chambarchas bog'liqdir.

Bundan tashqari, N.Komilov tasavvufning amaliy jihatlariga ham e'tibor qaratadi. «Tasavvuf barchasidan oldin eng avvalo amallar majmuasidan iborat bo'lgan ta'limotdir. Tasavvufning amallar bilan bog'liq qismi "Amaliy Tasavvuf" deb ataladi». Tasavvufiy amallar, masalan, ibodatlar (namoz, ro'za, zakot, Haj), zikr odobi va tasavvufiy marosimlar (murid tushish (biror shayxga intisob qilish), xirqa kiyish... odoblari) diniy ta'limotning bir qismi sifatida ko'riladi. Bu amallar ruhiy va ma'naviy yuksalishga olib keladi [2].

N.Komilov tasavvufning ijtimoiy ahamiyatini ham alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, tasavvuf ijtimoiy muammolarga qarshi ma'naviy yechimlarni taklif qiladi. Tasavvufiy harakatlar ko'pincha ijtimoiy beqarorlik va iqtisodiy qiyinchiliklarga javob sifatida paydo bo'ladi. Tasavvuf ta'limoti insonlar o'rtasida hamjihatlik va ma'naviy birlikni yaratishga intiladi. Bu ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Olim tasavvufning falsafiy ta'limot sifatidagi jihatlarini tadqiq qilar ekan, uning metafizik, ontologik, gnoseologik va antropologik tomonlarini chuqur tahlil qiladi. U tasavvufning ilohiy haqiqat, borlik, bilish (ma'rifat) nazariyasi, inson borlig'i, uning ruhiyat olami va mohiyati haqida falsafiy tafakkur qilish imkoniyatlarini ochib beradi [3].

Tasavvufning bosh manbalarini belgilash masalasida N.Komilov aniq pozitsiyani egallaydi. Uning nazarida tasavvuf ta'limotining bosh manbalari quyidagilardan iborat:

1. Qur'oni karim va Payg'ambar Sunnati. N.Komilov tasavvufiy g'oyalarning asoslarini Islomning muqaddas matnlaridan olishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Qur'on va Sunnat tasavvufiy amaliyotlarning asosiy prinsiplarini belgilaydi [4].
2. Ilk so'fiylarning ko'rsatmalari va g'oyalari, tasavvuf nazariyotchilarining ilmiy-adabiy asarlari. Tasavvuf tarixida muhim o'rin tutgan ilk so'fiylarning so'zlari va ko'rsatmalari, so'fiy shoirlar va mutafakkirlarning asarlari ham asosiy manba hisoblanadi. Masalan, Hakim at-Termiziy, Mustamliy Buxoriy, Abo'said Abulxayr, Xoja Abdulloh Ansoriy, Xoja Abdulqodir Geloniy, Xoja Yusuf Hamadoniy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy, Muhammad al-G'azzoliy, Shayx Fariduddin Attor, Ibn al-Arabi, Mavlono Jaloliddin Balxiy Rumiy va Mavlono Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlarining ilmiy-adabiy asarlari tasavvufiy fikrlar va g'oyalarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega [5].
3. Islomiy falsafa. Islom falsafasi, ayniqsa, Islom ilohiyotshunosligi – Kalom ilmi maktablari hamda ratsional falsafa – Mashoiyun va Tabiiyun maktablari ham tasavvuf ta'limotining shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynagan. N.Komilov bu falsafiy ta'limotlarning tasavvuf bilan aloqadorligini ta'kidlaydi [6].
4. Ijtimoiy va madaniy kontekst. Tasavvufning rivojlanishi ijtimoiy va madaniy sharoitlarga ham bog'liq. N.Komilov tasavvuf ta'limotining o'zgarishlariga ta'sir yetkazgan ijtimoiy va madaniy omillarni ham o'rganadi [7].

5. Tajribaviy asoslar. Tasavvufda amaliy tajriba va botiniy-ruhiy holatlar ham muhim omil hisoblanadi. Sufiylar o'z amaliy tajribalari va botiniy kashflari orqali ruhiy yuksalishga erishib, favqulodda va xoriqulodda kashfiyotlar – kashfu karomatlar qilishgan [8].

Najmiddin Komilovning tasavvufni mukammal bir diniy-falsafiy ta'limot sifatida tadqiq etishlari doirasiga tasavvufning falsafiy jihatlarini ham kiradi. Tasavvufning falsafiy ko'rinishga ega bo'lishi, uning fikriy-aqidaviy tuzilishida yangi falsafiy fikr va g'oyalarning vujudga kelishi tasavvuf ta'limotining yangi bosqichi sifatida muhim ahamiyatga ega. Professor N.Komilovning ta'kidlashicha, ushbu davrda olam va inson haqidagi fikrlar, masalan, Muhammad G'azzoliy, Farididdin Attor, Najmiddin Kubro, Ibn al-Arabiy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Aziziddin Nasafiy va boshqa mutafakkirlar tomonidan falsafiy-irfoniy usullar orqali ishlab chiqilgan [9].

N.Komilov tasavvufning "falsafalashish" davrini XIII-XIV asrlar bilan bog'laydi: «Tasavvufning "falsafalashish" davri – XIII-XIV asrlarda bir qator mutafakkir adiblar, orif so'fiylar yetishib chiqdiki, biz ularni tasavvufni falsafa bilan bog'lovchilar, deb aytamiz. Chunonchi, Ibn al-Arabiy, Abu Homid Muhammad G'azzoliy, Farididdin Attor, Aziziddin Nasafiy, Yahyo Suhrevardiy, Ibn Saboin, Abdurazzoq Koshoniy, Abdulkarim Jiliy, Mahmud Shabustariy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Bedil shunday mutafakkirlar. Bularning ijodida olam va odam haqida o'ylar, qazovu qadar, erk va ixtiyor, suvrat va ma'no, aql va ruh, vaqt va zamon, inson tiynati xususida ko'plab yangi qarashlar bayon etilgan. Bu zotlar ilohiyshunoslikni butunlay yangi pog'onaga ko'tardilar. Ularning asarlarida insoniy ma'rifat insoniy kechinmalar tasviri va tahlili bilan olib borildi, komil inson xislatlari batafsil ishlab chiqildi» [10].

Tasavvufshunos olim J.Xolmo'minovning tadqiqotlariga ko'ra esa, tasavvufning falsafalashish jarayoni irfoniy matnlarni germenevtik usulda talqin qilish jarayoni bilan ancha oldinroq boshlangan: «Tasavvufiy tushunchalar, istilohlar, ramziy va majoziy ma'nolarni germenevtik usul yordamisiz tushuntirishning imkoni yo'q. Tasavvufiy bilimlarga germenevtik yondashish X-asrdan buyon mavjud bo'lib kelgan» [11].

Najmiddin Komilovning fikricha, mutasavvif olimlar «o'z qarashlari bilan Ibn Sino, Ibn Rushd, Umar Xayyomga yaqinlashib bordilar, ya'ni irfoniy tasavvufni rivojlantirdilarki, bu, masalan, Ibn Sino tomonidan ham iliq qarshi olingan edi. Ibn Sino irfoniy bilish yo'lini inkor etgan emas, aksincha, "Hayy ibn Yaqzon", "At-Tayr", "Salomon va Absol" nomli asarlarida ramzlar orqali so'fiyona ma'rifatga erishishni tasvirlaydi. "Risola fil-ishq" asarida esa muhabbatni aynan irfoniy mazmunda talqin etgan» [12].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tasavvuf falsafasi ta'limoti metodologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu metodologik asoslar quyidagi jihatlarda o'z aksini topadi.

Tasavvuf ta'limotining diniy-falsafiy mohiyati

Tasavvuf ta'limoti o'zining dastlabki shakllanish bosqichlaridayoq oddiy diniy qarashlardan tashqariga chiqib, chuqur falsafiy mazmun kasb etgan. Bu ta'limot insonning Allohga bo'lgan muhabbati va ma'rifati orqali ilohiy haqiqatni anglashga intilish yo'lidir. Tasavvuf ta'limoti diniy asoslarga ega bo'lsa-da, u falsafiy tafakkur doirasida rivojlangan.

Tasavvuf ta'limotining diniy-falsafiy mohiyati uning falsafiy kategoriyalar va tushunchalar doirasida o'z g'oyalarni ifodalashida namoyon bo'ladi. Bu ta'limotda "vujud" (borliq), "vahdat" (birlik), "kasrat" (ko'plik), "fano" (yo'qlik), "baqo" (mangulik) kabi falsafiy

tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi. Bu tushunchalar tasavvuf ta'limotining ontologik asoslarini tashkil etadi.

Tasavvuf ta'limotining epistemologik (bilish nazariyasi) jihatlari ham o'ziga xos. Bu ta'limotda bilish jarayoni "ma'rifat" tushunchasi orqali ifodalanadi. Ma'rifat – bu oddiy aqliy bilimdan farqli o'laroq, qalb bilan, ruhiy tajriba orqali erishiladigan bilim. Tasavvufda ma'rifatga erishish yo'li – bu qalbni poklash, nafsni tarbiyalash va ruhiy poklanish jarayoni orqali amalga oshiriladi.

Tasavvuf ta'limotining antropologik jihatlari inson mohiyati, uning ruhiy dunyosi va kamolot yo'llari haqidagi tasavvurlarda namoyon bo'ladi. Bu ta'limotda inson – Allohning yerdagi xalifasi, uning sifatlarini o'zida aks ettiruvchi mavjudot. Insonning maqsadi – o'z ruhiy potensialini ro'yobga chiqarish, ilohiy sifatlarini o'zida namoyon etish va "komil inson" darajasiga erishish.

Tasavvuf va ratsional falsafa munosabati

Tasavvuf ta'limoti islomiy ratsional falsafa bilan murakkab munosabatda bo'lgan. Bir tomondan, tasavvuf ta'limoti islomiy ratsional falsafadan (mashshoiyya, kalom) farqli o'laroq, irfoniy (intuitiv) bilimga tayanadi. Boshqa tomondan esa, tasavvuf ta'limoti rivojlanish jarayonida ratsional falsafaning qator elementlarini o'zlashtirgan.

Tasavvuf ta'limotining "falsafalashuvi" jarayoni XIII-XIV asrlarda o'z cho'qqisiga yetdi. Bu davrda tasavvuf ta'limoti va ratsional falsafa o'rtasidagi chegaralar yo'qolib, ular o'rtasida sintez yuzaga keldi. Bu sintez natijasida "irfoniy falsafa" deb ataluvchi yo'nalish shakllandi.

Irfoniy falsafa ratsional tafakkur va intuitiv bilimni uyg'unlashtiruvchi ta'limot sifatida namoyon bo'ldi. Bu ta'limotda falsafiy kategoriyalar va tushunchalar orqali irfoniy tajribalar ifodalandi, ruhiy olam qonuniyatlari falsafiy tilda bayon etildi.

Ibn Sino, Umar Xayyom kabi faylasuflar ijodida ham irfoniy elementlar kuzatilishi, tasavvuf va ratsional falsafa o'rtasidagi yaqinlikdan dalolat beradi. Xususan, Ibn Sinoning "Hayy ibn Yaqzon", "At-Tayr", "Salomon va Absol" va "Risola fil-ishq" kabi asarlarida so'fiyona g'oyalar ifodalangan. Umar Xayyom ruboiylarida ham tasavvufiy ramzlar va obrazlar keng qo'llanilgan.

Tasavvuf ta'limotining metodologik xususiyatlari

Tasavvuf ta'limotining metodologik xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. **Tavhid prinsipi.** Tasavvuf ta'limotining markaziy metodologik prinsipi – bu tavhid, ya'ni borliqning birligi g'oyasidir. Bu prinsip nafaqat diniy-teologik, balki ontologik-falsafiy ahamiyatga ham ega. Tasavvufda borliq yagona, uning asosida ilohiy borliq yotadi, boshqa barcha mavjudot esa ilohiy borliqning tajalliysi (namoyon bo'lishi) sifatida tushuniladi.
2. **Tamsil (analogiya) metodi.** Tasavvuf ta'limotida bilish jarayonida keng qo'llaniladigan metod – bu tamsil, ya'ni analogiya metodidir. Bu metod orqali ilohiy olam va inson olami o'rtasidagi o'xshashliklar aniqlanadi, mikrokosm (inson) va makrokosm (olam) o'rtasidagi muvofiqlik ochib beriladi.
3. **Ramziy-majoziy metodologiya.** Tasavvuf ta'limotida ramzlar va majozlar orqali fikr ifodalash keng tarqalgan. Bu metodologiya orqali murakkab metafizik g'oyalar va ruhiy tajribalar ifodalanadi. Masalan, "may", "soqiy", "yor", "hijron", "visol" kabi ramzlar orqali ilohiy ishq va ma'rifat ifodalanadi.

4. **Dialektik metodologiya.** Tasavvuf ta'limotida qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi g'oyasi muhim o'rin tutadi. Masalan, "fano va baqo", "vahdat va kasrat", "zohir va botin" kabi dialektik juftliklar orqali borliqning murakkab tabiati ochib beriladi.
5. **Hermenevtik metodologiya.** Tasavvuf ta'limotida matnlarni talqin qilish, ramziy ma'nolarni ochib berish muhim ahamiyatga ega. Bu metodologiya X asrdan buyon tasavvufiy bilimlarni tushuntirishda qo'llaniladi.

Tasavvuf ta'limotining bugungi kundagi ahamiyati

Tasavvuf ta'limoti bugungi kunda ham insoniyat ma'naviyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu ta'limotning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. **Inson ruhiy dunyosini o'rganish.** Tasavvuf ta'limoti inson ruhiy dunyosini chuqur o'rganuvchi ta'limot sifatida psixologiya va antropologiya sohalariga qimmatli ma'lumotlar beradi.
2. **Ma'naviy-axloqiy tarbiya.** Tasavvuf ta'limoti insonni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan ta'limot sifatida bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi.
3. **Tolerantlik va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish.** Tasavvuf ta'limoti barcha insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, tolerantlik va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi ta'limot sifatida bugungi globalashuv davrida muhim ahamiyatga ega.
4. **Ekologik ongni shakllantirish.** Tasavvuf ta'limotidagi barcha mavjudotning birligi g'oyasi ekologik ongni shakllantirishda, tabiatga ehtirom bilan munosabatda bo'lishda muhim ahamiyat kasb etadi.
5. **Ilmiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirish.** Tasavvuf ta'limotidagi dialektik fikrlash, ramziy-majoziy tafakkur, hermenevtik yondashuv kabi metodologik prinsiplar ilmiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf falsafasi ta'limoti o'zining metodologik asoslari bilan islomiy tafakkur tarixida muhim o'rin tutadi. Bu ta'limot diniy-falsafiy tafakkurning o'ziga xos sintezi sifatida shakllanib, inson ruhiy dunyosini, borliq mohiyatini, bilish jarayonini o'ziga xos talqin etuvchi mukammal metodologik tizimni yaratgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tasavvuf falsafasi ta'limotining metodologik asoslarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tasavvuf ta'limoti islom dini kontekstida shakllangan bo'lsa-da, u oddiy diniy ta'limotdan tashqariga chiqib, mukammal diniy-falsafiy ta'limot sifatida rivojlangan. Bu ta'limot diniy, falsafiy va ijtimoiy-axloqiy komponentlarni o'z ichiga olgan sintetik xarakterga ega.
2. Tasavvuf ta'limotining falsafiy jihatlari uning ontologik, gnoseologik, antropologik va aksiologik qarashlar tizimida namoyon bo'ladi. Bu ta'limotda "vujud", "vahdat", "ma'rifat", "komil inson" kabi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi.
3. Tasavvuf ta'limotining asosiy manbalari Qur'on va Sunnat, ilk so'fiylarning ko'rsatmalari, tasavvuf nazariyotchilarining ilmiy-adabiy asarlari, islomiy falsafa, ijtimoiy-madaniy kontekst va tajribaviy asoslardan iborat.

4. Tasavvufning "falsafalashuvi" jarayoni XIII-XIV asrlarda o'z cho'qqisiga yetgan. Bu davrda Ibn al-Arabiy, Muhammad G'azzoliy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi kabi mutafakkirlar tomonidan tasavvufning falsafiy asoslari ishlab chiqilgan. Lekin tasavvufiy g'oyalarning falsafiy talqini jarayoni X asrdan boshlangan deb hisoblash mumkin.
5. Tasavvuf ta'limoti va ratsional falsafa o'rtasidagi munosabatlar murakkab xarakterga ega. Tasavvuf irfoniy bilimga tayansa-da, rivojlanish jarayonida ratsional falsafaning elementlarini o'zlashtirgan. Natijada "irfoniy falsafa" deb ataluvchi yo'nalish shakllangan.
6. Tasavvuf ta'limotining metodologik xususiyatlari tavhid prinsipi, tamsil metodi, ramziy-majoziy metodologiya, dialektik metodologiya va hermenevtik metodologiyada namoyon bo'ladi.
7. Tasavvuf ta'limoti bugungi kunda ham insoniyat ma'naviyatini yuksaltirishda, inson ruhiy dunyosini o'rganishda, ma'naviy-axloqiy tarbiyada, tolerantlik va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishda, ekologik ongni shakllantirishda va ilmiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Tasavvuf falsafasi ta'limotining metodologik asoslarini yanada chuqurroq o'rganish uchun maxsus tadqiqot markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.
2. Tasavvuf ta'limotining ilmiy-falsafiy merosini o'rganish va targ'ib qilish uchun ilmiy konferensiyalar, seminarlar o'tkazish lozim.
3. Tasavvuf ta'limotining ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy qadriyatlarini zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish maqsadga muvofiq.
4. Tasavvuf falsafasini o'rganishga bag'ishlangan o'quv qo'llanmalar, ilmiy-ommabop nashrlar tayyorlash zarur.
5. Tasavvuf ta'limotining ratsional falsafa bilan munosabatlarini chuqurroq o'rganish uchun komparativ tadqiqotlarni kuchaytirish lozim.
6. Tasavvuf ta'limotining metodologik potensialidan zamonaviy falsafiy, psixologik, antropologik tadqiqotlarda foydalanish maqsadga muvofiq.
7. Tasavvuf falsafasi ta'limotining ekologik ongni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berish uchun maxsus tadqiqotlar olib borish zarur.

Tasavvuf falsafasi ta'limotining metodologik asoslarini o'rganish bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan ma'naviy-axloqiy inqirozlardan chiqish yo'llarini topishda, inson ruhiy dunyosini chuqurroq tushunishda, global muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1-10] Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: "Mvrunnhr" – "O'zbekiston", 2009. – B.250.
- [11] Xolmo'minov J. Qiyosiy tasavvufshunoslik (Monografiya). – Toshkent: "Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti", «Yangi asr avlodi», 2021. – B.27.
- [12] Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1999. – B.205.